

YOSHLAR ORASIDA AXLOQIY-ESTYETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAHALLA, HAMDA MILLIY-MANAVIY QADRIYATLARNING O'RNI.

B.Yu.Sayilov (SamDU magstranti)
R.R.Komilov (SamDU magstranti)

Ushbu maqolada Shaxsning axloqiy va estetik madaniyati shakllanishida milliy-ma'naviy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar orqali shakllantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Har qaysi xalq yoxud inson uchun ajdodlaridan meros, kelajak avlodni kamol toptirib voyaga yetkazish uchun xizmat qiladigan muqaddas zamin, ya'ni ona Vatan va xalq bag'rida saqlanib, sayqallanadigan milliy-ma'naviy qadriyatlar mavjud bo'ladi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda shaxs estetik madaniyatining davrlar oralig'idagi xilma-xil an'analar, udum va marosimlar tarzida ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Har bir shaxs uchun o'zi tug'ilib o'sgan joy muqaddas sanalib, xalqning urf-odatlar, marosim va udumlari estetik madaniyat shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, «jazirama sahroda yashovchi – ko'chmanchi badaviy, abadiy muzliklar bilan qoplangan yurtlardagi – evenklar, inson o'tib bo'lmaydigan to'qaylarda yashayotgan – aborigenlar va boshqa xalqlar uchun ajdodlari o'tgan hamda o'zlari yashayotgan tabiiy muhit, ijtimoiy makon Vatan hisoblanadi. Uning ravnaqini o'z o'tovi, chaylasi, yerto'lasida yashayotgan oilasi, qondosh urug'lari, xalqi hayot tarzi, e'tiqodi, orzu-umidlari timsolida tasavvur qiladi».

Milliy-ma'naviy qadriyatlar har bir xalqning ana shunday tabiiy va ijtimoiy muhiti, an'ana va urf-odatlar orqali shakllanadi. O'zbekona mentalitet va milliy-ma'naviy qadriyatlarning shunday jihatlari borki, ular xalqimiz estetik madaniyati tarixi va bugungi taraqqiyot tamoyiliga yorqin dalil bo'ladi.

Masalan, farzand tug'ilganda unga ism qo'yishning o'zi xalqimizga xos ajoyib bir an'ana hisoblanadi. Adabiyotshunos Mahmud Sattorov o'zining «O'zbek udumlari» kitobida bu voqeaning ma'naviy-tarbiyaviy va estetik jihatlarini atroflicha yoritib bergan.

Ism qo'yishda ota-bobolarimiz bolaning qaysi urug', qaysi sulola, qaysi kasb-hunar yoki joydan ekanligiga, tanasining biror bir joyidagi belgi, xol yoki kamchilik, ortiqchalik va hokazolarga ahamiyat bergan. Bu odatning ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ism yo katta yoshdagi ota-bobolar, buvilar yoki mahalla, qishloqdagi obro'li shaxs tomonidan qo'yilgan. Ism – farzand istiqbolini ko'zlagan niyatda jaranglagan. «Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy, mas'uliyatli udum sanalib, bu ism bo'lajak fuqaroning kelajak taqdiri – a'moli, hayot yo'liga ta'sir qiladi, deb tushunilgan. Shuning uchun ham urug', kasb-koru, sulola mavqyeiga mos nom qo'yish taqozo qilingan».

“Hozirgi kunda, - deb yozadi Mahmud Sattor, - bolaga ism qo'yishda muayyan an'analar, tarixning murakkab sinovlaridan o'tgan udum-odatlarga rioya qilmay, shunchaki urf ketidan quvish tufayli yosh ota-onalar biror kitob qahramoni, kino

yulduzi, atoqli shaxs, tarixiy zotlar ismlarini o'z farzandlariga o'rni bo'lsa-bo'lmasa qo'yib, oqibatda ularni noqulay ahvolga solib qo'ymoqdalar".

Demak, bolaga chiroyli ism berishning o'zi juda ko'p ma'naviy-axloqiy va estetik omillarni talab etadiki, bu omillarning to'g'ri tanlanishi kelajakda bolaning boshqalar bilan munosabatini, shaxsini tasdiqlash va hayotda o'z o'rnini topishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning ma'naviy yuksalish jarayonida uning barcha axloqiy, estetik, siyosiy va mafkuraviy tasavvurlari ijtimoiy tuzum va tizimlarning ta'siri tufayli shakllanib va rivojlanib boradi. Natijada shaxsdagi sog'lom, nafis va bejirim jismoniy qiyofa, yuksak ma'naviy his-tuyg'ular, estetik did va tushunchalar birligi asosida estetik madaniyat tarkib topadi. Va, nihoyat, shaxsning estetik va axloqiy madaniyati uyg'unlashib ma'naviy barkamollikni vujudga keltiradi.

Shaxsning axloqiy va estetik madaniyati shakllanishida quyidagi omillar katta rol o'ynaydi: birinchidan, shaxs tug'ilib o'sgan ijtimoiy muhit; ikkinchidan, shaxsga uzoq vaqt davomida ma'lum bir tizim asosida beriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining axloqiy-estetik yo'nalishi; uchinchidan, shaxsning intellektual va estetik taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tug'ma, ya'ni nasliy xususiyatlar. Ammo, shu narsaga e'tibor berish kerakki, shaxsning aqliy, axloqiy, estetik va ma'naviy dunyosi hech vaqt tug'ma ravishda berilmaydi.

Shuningdek, shaxs axloqiy tarbiyasini yuksak estetik madaniyat darajasiga, estetik tarbiyani yuksak axloqiylik darajasiga ko'tarishda yo'l qo'yiladigan ayrim kamchiliklarning oldini olish lozim. Oilaviy sharoitlar, bolalar tabiati va ta'lim-tarbiya muassasalari har xil bo'lgani sababli yoshlarning axloqiy tarbiyasi, estetik tafakkuri va estetik madaniyatga ehtiyojlari ham bir xil emas. Shuning uchun ayrim bolalarning didi yoshlikdan taraqqiy etib, boshqalarniki o'smay qoladi. Bolalar yoshligida qanday estetik tarbiyalangan bo'lsa, kelajakda shu asosda faoliyat olib boradilar. Xalqimiz orasida «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql bor. Shuning uchun xalqimiz axloq-odobni ham, estetik tarbiyani ham doimo qo'shib olib borganlar va shaxsning ma'naviy dunyosi uning amaliy faoliyatida asosiy ko'rsatkich mezon bo'lishini ta'kidlab kelganlar. Bu g'oya qadimgi madaniy-ma'naviy yodgorligimiz «Avesto»ning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini belgilovchi «ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» birligida o'z ifodasini topgan edi.

Shaxsning estetik madaniyatini axloqiy qadriyatlar qonun-qoidalariga rioya qilgan holda tarbiyalash birinchi navbatda yoshlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat singari fazilatlarni shakllantirish demakdir. Estetik madaniyat esa, o'z navbatida, jamiyat taraqqiyotining insoniylashuvi, xalqning go'zallik haqidagi tasavvurlarining ro'yobga chiqishi va ommaviylashuvida juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, mustaqillikdan keyin butun mamlakat bo'ylab yangi-yangi inshootlar, temir yo'l va transport yo'llari, zamonaviy litsey va kollejlar, muzey va madaniyat saroylari hamda xotira, istirohat bog'lari barpo etildiki, bunday go'zallik namunalari har bir shaxs didi va estetik madaniyatiga ta'sir etib qolmay, ularning axloqiy qiyofalari, dunyoqarashiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy muhit go'zalligi, maqsadimiz ulug'vorligiga, axloqiy-estetik tasavvurlar nafisligiga olib kelishi tabiiy. Shaxsning ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lishi uning sog'lom, aql-zakovatli,

ma'rifatli, insonparvar, mehnatsevar hamda mas'uliyatlilik singari fazilatlarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Estetik madaniyat voqelikdan estetik zavq-shavq olish bilan chegaralanmaydi. U insondan yuksak axloqiylik qatori ma'lum tafakkur rivojini, ma'rifiy bilim va jamiyatni, tabiatni, millat va madaniyatni sevishni, go'zallikni ardoqlashni ham talab etadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy hayotni demokratlashtirish jarayoni borayotgan bir paytda yoshlar umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilsa, ma'naviy meros va tariximizni chuqur bilsa ozod va obod Vatan ravnaqi uchun shunchalik ko'proq xizmat qilgan bo'ladi. Mirzakalon Ismoilov «Odamiylik qissasi» nomli asarida insonga ma'naviy «husnni chiroyli odob, axloq, madaniyat, yaxshi fazilat beradi», deb yozgan edi. Ana shunday kamolot barcha davrlar va xalqlarda ham qadrlangan. Bizda esa, ayniqsa, mustaqillikdan keyin sharqona hayo, ibo va mehr-oqibat umumbashariy axloqiy qadriyatlar bilan hamohang tarzda tarbiya tizimining asosiy yo'nalishiga aylantirildi.

Mustaqillik shaxs kamolotiga yangicha talablar ham qo'ydi. Har qachongidan ko'ra ko'proq ichki va tashqi go'zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Shaxsdagi faqat tashqi ko'rinish estetik madaniyatning yaxshi bo'lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma'naviy dunyosi boy, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo'lish kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi.

Shunday qilib barkamol shaxsning estetik madaniyatini ravnaq toptirish mustaqillik sharoitida inson omilini yuksaltirishning muhim sohasi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mamashokirov S, O'tamurodov A. Ezgu maqsad yo'lida. -Toshkent: Muharrir, 2008. – 7.b
2. Sattorov M. O'zbek udumlari. –T.: Cho'lpon nashriyoti, 2007. – 15-16 b.
3. Mirzakalon Ismoilov. Odamiylik qissasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1969. -B.15-17.